

## “OKMK” NI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNING O’RNI VA AHAMIYATI

Abdullaeva Shahnoza Arifdjanovna

Tadbirkorlik va biznes oliy maktabi 2-guruh magistranti,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11193265>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kon-metallurgiyani rivojlanishi haqida turli xil strategiyalar berilgan. Maqola davomida investitsion loyihalarning o’rni va ahamiyati, stragetik rivojlanish kabi ma’lumotlarga ega bo’lasiz.

**Kalit so’zlar:** kon-metallurgiya, strategiya, investitsion rivojlanish, kompaniya, loyiha, klaster, tarmoqlar, vagon, kombinat.

### THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INVESTMENT PROJECTS IN THE DEVELOPMENT OF "OKMK"

**Abstract.** This article presents various strategies for the development of mining and metallurgy. In the course of the article, you will get information about the role and importance of investment projects and strategic development.

**Key words:** mining and metallurgy, strategy, investment development, company, project, cluster, networks, wagon, combine.

### РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В РАЗВИТИИ «ОКМК»

**Аннотация.** В данной статье представлены различные стратегии развития горнодобывающей и металлургической промышленности. В ходе статьи вы получите информацию о роли и значении инвестиционных проектов и стратегического развития.

**Ключевые слова:** ГМК, стратегия, инвестиционное развитие, компания, проект, кластер, сети, вагон, комбинат.

KIRISH:Dunyoda sanoat korxonalari investitsion salohiyatini oshirishning tashkiliy iqtisodiy- metodologiyasini takomillashtirishning metodologik, uslubiy va tashkiliy iqtisodiy, huquqiy asoslarini takomillashtirish sanoat tarmoqlarini rivojlanirish borasida xorijiy sarmoyalarni jalg qilishni investitsion jozibadorlik koeffitsiyentlariga ko’ra takomillashtirish; sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minalash tizimini tashqi va ichki omillar ta’siriga ko’ra takomillashtirish; investitsion loyiha bo‘yicha sheriklik huquqini beruvchi sukuk qimmatli qog‘ozini emissiya qilish; sanoat korxonalariga xorijiy IPOlarni kiritish, qimmatli qog‘ozlarni birja listingiga kiritish, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish maqsadida portfel investitsiyalarni amaliyatga joriy etishdan iborat.

#### MUHOKAMALAR VA NATIJALAR:

Jahonda sanoat sohasida investitsion salohiyat darajasini ishlab chiqarishni optimal tashkil qilishga va mintaqaviy imkoniyatlarga ko’ra oshirish yo‘nalishdagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda. Bu borada, jumladan ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali tashkiliy-iqtisodiy metodologiyalarini takomillashtirish, sanoat korxonalarida inson kapitali samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va mahsulot raqobatbardoshligini zamonaliv texnologiyalarga ko’ra oshirish, ishlab chiqarishning uzoq muddatli samarali strategiyasini ishlab chiqish va infratuzilmani rivojlanirish mavzusidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati — O‘zbekistonda rangli metallurgiya sanoatining yirik korxonasi. Kombinat 2 majmuadan — qo‘rg‘oshin-rux (Qo‘rg‘oshinkon, Oltintopgan, Sardoba konlari, qo‘rg‘oshin-rux boyitish fabrikasi va rux zavodi) hamda Mis ishlab chiqarish majmuasidan (Qalmoqqir koni, mis boyitish fabrikasi, mis zavodi)dan iborat. Korxona tomonidan Qurama tog‘laridagi polimetalli rudalarning boy zaxirasini keng ko‘lamda o‘zlashtirish maqsadida kon-qurilish ishlari 1949-yildan boshlangan edi. 1950-yilda qo‘rg‘oshin koni, 1954-yilda qo‘rg‘oshin,rux boyitish fabrikasi, 1955-yilda Oltintopgan koni qurib bitkazildi. 1961-yilda mis molibden ruda boyitish fabrikasi, 1964-yilda miss eritish zavodi, 1970-yilda rux zavodi, 1974-yilda Sari-Chiqqi karyeri ishga tushirildi. Olmaliq konmetallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatni obyektlarini rivojlantirish 80-yillarda ham faol davom ettirildi. 1999-yildan kombinat ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Korxona tomonidan chiqarilayotgan rudalar tarkibidan 13 ta kimyoviy elementlarni ajratib olib mis va mis buyumlar, rux, kadmiy, oltin, kumush, qo‘rg‘oshin, sulfat kislotasi, mis va molibden konsentratlari, selen, tellur, mis va rux kuporosi kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Korxona bo‘linmalarini „Svedala“ (Shvetsiya), „Varmon“ (Germaniya), „Integra Grou“ (Amerika), „Mexanabr-Injiniring“ (Rossiya) va boshqa ilg‘or firmalarning zamonaviy asbob - uskunalar bilan jihozlash ishlari olib borilmoqda. Kombinatt mahsulotlari chet mamlakatlarga eksport qilinadi.[1]

2023-yilni Olmaliq kon-metallurgiya kombinati salmoqli natijalar bilan yakunladi. Jumladan, kombinat tomonidan 31,7 trln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, 1 128,2 mln dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, - deydi A. Saynazarov. – 661,9 mln dollarlik mahsulotlari eksport qilingan. Mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha 429,0 mlrd so‘mlik mahsulot tayyorlangan. Mahsulotlarning tannarxini tushirish bo‘yicha 404,7 mlrd so‘mlik natija qayd etilgan. 14,95 trln so‘m mablag‘ esa byudjetga to‘lab berilgan. 6,7 trln so‘m sof foyda olingan. 163,5 mlrd so‘mlik geologiya-qidiruv ishlari bajarilgan. OKMKda investitsiyaviy loyihalalar ham muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, “Yoshlik-1” loyihasining tog‘-kon majmuasi bo‘yicha 6 ta ob‘yekti, 3-mis boyitish fabrikasi bo‘yicha 6 ta obyektning qurilishi yakunlangan. Yangi metallurgiya majmuasining qurilishi bo‘yicha dastlabki loyiha ishlari boshlangan. 2024-yilda ham mazkur yo‘nalishlarda olib borilayotgan ishlar jadallashtiriladi. Jumladan, 32,2 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2 136,4 mln dollarlik investitsiyaviy loyihalalar amalga oshiriladi. 1 016,6 mlrd so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. 15,73 trln so‘m mablag‘ byudjetga yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.Raqamli OKMK 2030” konseptsiyasi Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining barcha ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini raqamlashtirish, ma‘lumotlarni jamlash, tahlil qilish va operativ qaror qabul qilishga qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda 2023-yil mobaynida 34 ta loyiha amalga oshirildi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy axborot tizimlarini joriy qilish yo‘nalishida Mis boyitish fabrikasida rudani qayta ishlash texnologik jarayonini yanada aniqlik bilan nazorat qilish va energetik resurslardan samarali foydalanish maqsadida 27 ta raqamli tenzometrik tarozilar o‘rnatildi. Shuningdek, 7-monoseksiyani texnologik jarayonini avtomatlashtirish doirasida 37 ta dozator nasoslari va 5 ta yangi reagent rezervuarlari sozlanib, ishga tushirish evaziga reagent sarfi 5 foizga qisqartirildi. Bundan tashqari, bunkerda ruda darajasini nazorat qilish tizimi joriy etilib, tegirmonlarni optimal ravishda xom ashyo bilan

ta'minlash yo'nga qo'yildi. Ushbu tizimlarni joriy etish natijasida rudadan mis ajratish darajasi 85 foizga chiqarilishi ta'minlandi.

Shuningdek fabrikada texnologik jarayonlarida ishtirok etuvchi asosiy qurilmalari diagnostika tizimi (avariya holatlarini erta oldini olish evaziga to'xtashlar sonini kamaytirish) hamda ruda-suv jarayonini avtomatlashtirish tizimi sinov tarzda ishga tushirildi. Natijada suvni tejash yiliga 1,8 mln m kubni tashkil etadi.

Bundan tashqari, Mis eritish zavodida "Metso-Outotec" va "Engineering Dobersek" hamkorligida Suyuq vannada eritish Vanyukov pechi va Sulfat kislota sexining avtomatlashtirish tizimlari takomillashtirilib, texnologik jarayonlarning uzluksiz ishlashi ta'minlandi.

Xondiza boyitish fabrikasida tegirmonlarni avtomatik boshqaruvini (SAU-3M) takomillashtirish doirasida asosiy nazorat va o'lchov asboblari yangilanib, texnologik jarayon barqarorligi ta'minlandi. OKMK tarkibiy bo'linmalari va Olmaliq shahrini issiqlik va issiqlik suv bilan ta'minlaydigan Issiqlik elektr stansiyasi 5-qozon va 3-turbogeneratorning nazorat va o'lchov asboblarini modernizasiya qilish doirasida 12 mVt/soatiga (12 mln so'm) elektr energiya ishlab chiqarish jarayonini barqaror ishlashi ta'minlandi.

Boshqaruv jarayoni samaradorligini oshirish va ish yuritish jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida OKMKda qog'ozsiz ish yuritish va yagona identifikatsiya tizimi konsepsiyasiga muvofig, barcha kombinat korxonalariga markazlashgan elektron kirish-chiqishni nazorat qilish tizimi o'rnatildi. 36 mingdan ortiq xodimlar yangi ID-kartalar bilan ta'minlanib, ushbu kartalar nafaqat kirish-chiqish jarayonida, balki ishlab chiqarishda naryad-topshiriq qabul qilish, texnika xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riq, shuningdek oshxonalarda ovqat tarqatish jarayonida ham qo'llaniladi.

"E-Talon" axborot tizimi doirasida barcha qog'oz shaklidagi ovqatlanish talonlarni chop etish, muhrlash va tarqatish qisqartirilib, hisobotlarni shakllantirish vaqtiga 7 martaga tezlashtirildi. Shuningdek, "Elektron jurnallar" axborot tizimida 20 ta turdag'i ishlab chiqarish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha jurnallarni shakllantirishda xodimlarning ID-kartalar yordamida tasdiqlanishi yo'nga qo'yildi va ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish imkonini yaratildi.

OKMK xodimlarini asosiy ish joyidan ajralmagan holda onlayn o'qitishga mo'ljallangan O'qitishni boshqarish tizimi ("Learning management system") dasturiy ta'minoti ishga tushirilib, 250 dan ortiq onlayn o'quv kurslari yaratildi va xodimlarni o'qitish xarajatlari 500 mln so'm/yiliga qisqartirildi.

Kon-transport kompleksi faoliyatini samaradorligini oshirish hamda axborot texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish doirasida "Qalmoqqir" va "Yoshlik-I" konlarida kon-transport boshqaruv tizimining 1-navbatni yakuniga yetkazilib, 99 ta avtosamosval, 20 ta ekskavator va 9 ta burg'ulash texnikalaridan maxsus apparat vositalari orqali ma'lumotlarni "onlayn" shaklda jamlash va qayta ishlash yo'nga qo'yildi.

Investitsion loyihalarni boshqarish tahlili va ularning samaradorligini baholash natijasi quyidagi xulosaga kelishimizga turki böldi: strategik investitsion loyihalarning samaradorligini oshirish maqsadida va ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, investitsion faoliyatni professional boshqarish kompaniyaning yanada sifatli va progressiv rivojlanishiga, yani minimal investitsiya xarajatlari bilan maksimal maqsadlarga erishishga imkon beradi. Ayniqsa strategik va davlat ulushi bölgan turli investitsion loyihalar o'ziga xos boshqaruv usullarini talab

qiladi. Sanoat korxonalari misolida ko‘radigan bo‘lsak, katta hajmdagi investitsiyalarni talab qilmaydigan investitsion loyihalar uchun pastdan yuqoriga qarab rejalashtirish va markazlashmagan boshqaruv ustunlik qiladi, kóp kapital talab qiluvchi investitsion loyihalar esa, masalan, mis klasteri investitsion loyihasini boshqarishda yuqoridan pastga rejalashtirish va markazlashtirilgan boshqaruv qo‘l keladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan aksariyat investitsion loyihalarda strategik va taktik boshqaruv bitta bo‘lim tomonidan amalga oshiriladi va kóp hollarda bu operatsion boshqaruv funksiyalariga ega bòldi. Respublika miqyosida amalga oshirilayotgan davlat ulushi ishtirokidagi investitsion loyihalarning alohida strategik boshqaruv bo‘g’inlarini yaratish maqsadga muvofiq.

XULOSA: Mamlakatimizda metallurgiya tarmog‘i uchun vagonlarni qurish va ta’mirlash faoliyati ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish mazkur tarmoqni tahlil qilish va kelgusida rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ekonometrik modellar metallurgiya tarmog‘ining rivojlanish ko‘rsatkichlarini miqdoriy tahlil qilibgina qolmasdan, balki unga tasir etuvchi omillar tarkibi hamda har bir omilning ulushini aniqlab berishga ham imkon beradi.

Respublikamizda «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyatining samarali rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish – mazkur korxona investitsion faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni miqdoriy aniqlash hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha optimal qarorlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Metallurgiya sanoatining faoliyatini rivojlantirish uchun eng birinchi navbatda «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ tovar aylanmasi hajmining ko‘payishi hamda asosiy vositalarning modernizatsiya qilinishi talab etiladi. Shu bilan bir qatorda hozirgi kundagi eng katta muammolardan biri bo‘lgan rentabellik darajasi past loyihalardan ba’zilarining o‘rniga tarmoqni rivojlantirish uchun zamin yaratadigan investitsion loyihalarni ishga tushirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## REFERENCES

1. Muxitdinova K.A. O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalari investitsion salohiyatini oshirishning taskiliy-iqtisodiy metodologiyasini takomillashtirish. //Monografiya. 2023. – 200 b.
2. Mukhiddinova K.A. Tasks of implementation of investment policy// ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249- 7137 Vol. 11, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492, Issue 9, September 2021 848- 852p. <http://dx.doi.org/10.5958/2249-7137.2021.01999.6>
3. Mukhiddinova K.A. Assessment of investment attractivity of industrial enterprises// Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565/26 Feb. 2022 <https://philpapers.org/rec/ALIAOI-2>
4. Джиянмуратова Г.Ш., Гафуров О.У. Совершенствование государственной молодежной политики в Новом Узбекистане. Ijtimoiy davlat sharoitida jamiyatni faollashtirish va davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish imkoniyatlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 26-may. – B. 182-185. /

- [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAJ&pagesize=80&citation\\_for\\_view=fdbotmYAAAAJ:MLfJN-KU85MC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAJ&pagesize=80&citation_for_view=fdbotmYAAAAJ:MLfJN-KU85MC)
5. Mukhitdinova K.A. Investment climate in Uzbekistan and influencing on some factors// Journal of Management Value & Ethics Jan-March. 22 Vol. 12 No. 01 SJIF 7.607 & GIF 0.626 ISSN-2249-9512 (08.00.00; №6) <https://www.jmveindia.com/journal/Jan-March%202022.pdf#page=47>
  6. Mukhitdinova K.A. Attracting investment to regions – an important factor of development// Asian Journal of Research in Banking and Finance ISSN: 2249-7323 Vol. 12, Issue 3, March 2022 SJIF 2022=8.558 a peer reviewed journal. <http://dx.doi.org/10.5958/2249-7323.2022.00013.X>